

JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE





OILA VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya:

Ushbu maqolada oila tushunchasi, olaning huquqiy asoslari, yosh oilarda er-xotin munosabatlari, oilaning asosiy xususiyatlari, oilaning turlari, oilaviy munosabatlar, oilaning vazifalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar:

Oila, Oila kodeksi, oila turlari, oila vazifalari, oilada er-xotin munosabatlari, oilaviy ajrimlar, oilaviy nizolar.

Information about the authors

Nafiddinova Xosiyat Ravshanovna

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasи o'qituvchisi

Yusupova Lola Mirmuhammad qizi

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti talabasi

Jamiyatshunos olimlarimiz oilaga turlicha ta'rif berishadi. Oila — nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilada yashash baxt va saodatdir. Shu sababli ham o'zbek jamiyatida oila muqaddas dargohligi bilan bog'liq tushunchalar ko'p tarqalgan. Inson zoti tug'ilibdiki yashash uchun barcha zaruriylatlarni jumladan ,yurish-turish, gapirish, o'qish-yozishdan tortib tabiat qonunlari bilan to'qnash kelganda nima qilish kerakligigacha oilada anglaydi va o'rganadi. Oila jamiyatning o'zani u qanchalik mustahkam bo`lsa, jamiyat shunchalik qudratli bo`ladi. Bizga to`laqonli baxtni tuhfa qiladigan ham, afsuski, ba'zida baxtimizni yarimta qiladigan ham bu oila va oilaviy hayotdir.

Oila kodeksi. Kodeks – qonun hujjatining kodifikatsiyalashtirilgani alohida huquq sohasi normalarining aniq tartibgada birlashtirilganidir. Kodeks lotincha codex so'zidan olingan bo'lib unga quyidagicha ta'rif berish mumkin. U ijtimoiy munosabatlarning muayyan bir turdag'i sohasini tartibga soluvchi sistemalashtirilgan yagona qonun hujjati (fuqarolik Kodeksi, jinoyat Kodeksi va h.k.). Davlatlariing ko'pchiligidagi mehnat, oila, jinoyat protsessual, fuqarolik bo'yicha kodekslar eng ko'p amalda bo'lgan qonunlar majmui hisoblanadi.

Oila kodeksi – oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi, oila a'zolari o'rtasidagi shaxsiy hamda mulkiy munosabatlarini qamrab olgan qonun hujjati hisoblanadi. Oila to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu kodeksdan hamda unga muvofiq qabul qilingan qonun hujjatlaridan iborat.

Oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatilik, bir biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurilishidan, biron- bir shaxning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqiniksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini taminlashdan iboratdir.

Oila turlari. Oila uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko'ra quyidagilarga farqlanadi:

- 1) To`liqligiga ko'ra: to`liq, noto`liq, qayta tuzilgan (2- nikoh) oilalar.



- 2) Bo`ginlar soniga ko`ra: nuklear (ota ona va bolalardan iborat) va ko`p nomli (ikki va undan ortiq avloddan iborat oila a`zolari bilan birga yashovchi) oila.
- 3) Bolalar soniga ko`ra: farzandsiz, bir bolali, ikki bolali, uch- to`rt bolali, besh va undan ortiq bolali oilalar.
- 4) Er-xotinning ijtimoiy kelinb chiqishiga ko`ra: ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziyolilar, aralash tipdagi oilalar kiradi.
- 5) Oilaning yoshiga ko`ra: yosh oila (bir yilgacha, uch- besh yillik, olti -o`n yillik turmush tajribasiga ega bo`lgan oilalar), o`rta yoshdagি oila, yetuk oila (qariyalar oilasi) kabi oilalar.
- 6) Er- xotinning ma'lumot saviyasiga ko`ra: oliv ma'lumotli, o`rta maxsus, o`rta, tugatilmagan o`rta, maxsus yordamchi maktab ma'lumotiga va turli saviyadagi ma'lumotlarda ega bo`lgan er-xotinlardan tashkil topgan oila.
- 7) Er- xotinning ota-onasi oilasining moddiy ta'minlanganlik darajasiga ko`ra: qudalarning bir-biriga mos yoki ular o`rtasida katta tafovut mavjudligi bo`yicha bir-biriga mos bo`lmagan oilalar.
- 8) Regional jihatlariga ko`ra: shahar, qishloq, aralash tipdagi oilalar.
- 9) Nikohdan qoniqqanlik saviyasiga ko`ra: ajralish arafasida, nikohdan qoniqqanlik darajasi, quyi darajali, o`rta darajali oilalar.
- 10) Oilada er-xotinning munosabatiga ko`ra: avtoritar, demokratik, liberal va aralash tipdagi oilalar.
- 11) Er-xotinning millatiga ko`ra: bir millatli, baynalmilal ya`ni ko`p millatli oilalar. Baynalmilal oilalarni o`z navbatida ikkiga bo`lish mumkin; a) dini, urf odatlari, tili bir guruhga kirgan millat vakillari orasida nikohlar masalan, o`zbek-tojik, o`zbek-qozoq, o`zbek-turkman va h.k. b) dini urf odatlari tili bir guruhga mansub bo`lmagan millat vakillarining o`rtasidagi nikohlar masalan, o`zbek-rus, o`zbek-ukrain, o`zbek-nemis va h.k.

Oilaning vazifalari. Har bir oila ijtimoiy tizim struktura sifatida jamiyat oldida ma'lum vazifani bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomondan esa umumiyl ijtimoiy tizimda oilaning o'rni, oilaning hal qiladiga ijtimoiy vazifalarini hisobga olish lozim.

Oila quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- 1) Iqtisodiy vazifa. Oila budgetini kengaytirish, daromadini rejali sarflash har kungi harajatlarga mablag` ajratish yokida rejalashtirilgan narsalarga mablag` yig`ish umuman olganda iqtisodiy taraflama oilani rivojlantirish uchun er-xotin yaxshigina tajriba va malakaga ega bo`lishlari zarur.
- 2) Tarbiyaviy vazifa. Ota-on — san'atkor, bola — san'at asari, tarbiya esa bu san'atning o`zidir. Oilaning tarbiyaviy vazifasi bu katta ahamiyatga ega bo`lgan jarayondir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Shaxs ma'naviyati dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko`nikmalar majmui asosan oilada shakillanadi, oila haqiqiy ma'naviyat o`chog'i, tarbiya omili va muhitidir. Oilaning tarbiyaviy vazifasi yo`nalishlari quyidagilardan iborat: aqliy tarbiya, ma'naviy tarbiya, estetik tarbiya, milliy qadiriyatlarga asoslangan tarbiya, komil inson tarbiyasi, jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, madaniy tarbiya, diniy tarbiya, milliy urf odatlarga asoslangan tarbiya.
- 3) Oilaning reproduktiv vazifasi. Oilaning jamiyat oldidagi reproduktiv vazifasi va uning bajarilishi deyilganda aholi sonini qayta tiklanishi uchun har bir oilada nechtadan farzand bo`lishi nazarda tutiladi. Oilaning reproduktiv vazifasining mohiyati inson naslini ettirish, ularni ilmiy madaniy yutuqlar bilan tanishtirish, salomatligini saqlab turishdan iborat.



4) Oilaning rekreativ vazifasi. Oilaning rekreativ vazifasi o`zaro jismoniy, moddiy, ma`naviy hamda psixologik, yordam ko`rsatish, bir-birining salomatligini mustahkamlash, oila a`zolari dam olishini tashkil etish.

5) Oilaning kommunikativ vazifasi. Oilaning kommunikativ vazifasi oila a`zolarining o`zaro muloqot va o`zara tushinishiga bo`lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Oilaning kommunikativ vazifasi yo`nalishlari quyidagilardan iborat: oilada o`zaro ichki muloqot xarakteri, turli ijtimoiy holatlar, vaziyatlar va hissiy madaniyat rivojlanganligi, oila a`zolarining bir-biri bilan insonlarcha suhbatlashishi.

6) Oilaning felitsitologik vazifasi. Oilaning felitsitologik vazifasi oilaviy munosabatlar tizimida baxtga erishishga intilishdan iborat. Oilani baxtli bo`lishini taminlovchi omillar quyidagilardan iborat: oilada er-xotinning bir birini to`liq tushinishi ularning o`zlarini baxtli his qilishlarini ta`minlaydi, insonning jamiyat va oila doirasida iqtidorini sarflash unga o`zini baxtli his qilish imkonini beradi, o`zidagi tabiiy-ijodiy imkoniyatlar iqtidorini ro`yobga chiqarish insonga o`zini baxtli his qilish imkonini beradi, har bir shaxs o`ziga vijdonlilik, poklik, halollik kabi ma`naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalashga e'tibor berishi lozim.

7) Oilaning regulyativ vazifasi. Oilaning regulyativ vazifasi oila a`zolari o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek birlamchi ijtimoiy nazoratni, oilada ustunlik va obro`ni amalga oshirishni o`z ichiga oladi. Bunda kattalar tomonidan yosh avloshni nazorat qilish va ularni moddiy hamda ma`naviy jihatdan qo`llab quvvatlash nazarda tutiladi. Shu bilan birga oilaning boshqaruv vazifasi oila a`zolarining xulqi, mas`uliyati, majburiyati kabilarni o`z ichiga oladi.

8) Oilaning relaksatsiya vazifasi. Oilaning relaksatsita vazifasi oila a`zolarining jinsiy emotsiyal faoliyatini, ruhiy jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini yana qayta tiklashdan iborat.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, oila – jamiyatning bir bo`lagi, uning asosiy yacheyskasidir. Shuning uchun oilaning o`z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarilishi nafaqat uning ichki holatiga, shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy sog`lomligiga ham ta`sir qiladi. Shunday ekan, jamiyatni sog`lomlashtirish uchun eng avvalo oilaviy munosabatlarni yo`lga qo`yish, oilaning faqat ichki muammolariga emas, balki umumijtimoiy muammolarini ham hal qilishga hissa qo`shishini ta`minlash lozim.

Yosh oilalarda er-xotin munosabatlari. Yosh oilalarda er-xotin munosabatlari o`ziga xos hududiy, etnik, jinsiy, yosh va individual psixologik, xususiyatlarga ega bo`lgan er-xotin munosabatlari shakillanishining eng nozik va hal qiluvchi shakli hisoblanadi. Umuman yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining qay tarzda rivojlanishi avvalo shu yosh oilaning yuzaga kelishiga asos bo`lgan nikoh oldi omillarining xaraketiga, shu oilalarning yuzaga kelish shart-sharoitlari bilan uzviy bog`liqdir. Biroq hayotda, ayniqsa, oilaviy hayotda hamma narsa biz kutgandek bo`lavermaydi. Oilaviy hayotning o`ziga xos notejisliklari, past-balandoqliklari, murakkabliklari, muammolarini bo`ladi. Shunday murakkabliklardan biri yosh er-xotinning yangi ijtimoiy statusga, mavqeyiga: er, kuyov, uylangan, oilali yigit, xotin, kelin, turmushga chiqqan ayol rollariga, o`zlarini uchun yangi bo`lgan ijtimoiy muhitga, yangi oilaga moslashish jarayoni bilan bog`liq. Albatta, bu jarayon erkaklarda ayollarga nisbatan yengilroq kechadi. O`zbek oilasining etnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ayollar arning uyida, uning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan birga yashaydi. Ya`ni yigit uylangandan keyin ham o`z oilasida, o`z yaqinlari va o`zi uchun oldindan odat bo`lib qolgan oilaviy shaxslararo munosabatlar tizimida qoladi. Ayol kishining esa nikohda keyingi holati, oldingisidan keskin farq qiladi. Birinchidan, u o`zi uchun deyarli yangi bo`lgan oldingisidan tubdan faqr qiladigan muhitga tushadi. U o`ziga xos shaxslararo munosabatlar tizimi, rollar taqsimoti, o`ziga xos xulqqa ega bo`lgan o`zining qizlik oilasidan boshqa bir oilaga, boshqacha bir shaxslararo munosabatlat tizimiga ega bo`lgan yangi oilaviy muhitga tushadi. Undagi mavjud turmush tarzi oldingisiga mos tushmaydi, u yerdagi ma`lum bir ishni bajarish bajarish tartibi, u yoki bu ishga qo`yiladigan talablar ham oldingisuga o`xshamaydi. Yangi ijtimoiy sharoitga moslashish jarayonining o`zbek oilalarida ayol kishi uchun qiyin kechishining yana



bir asosiy sabablaridan biri unda yosh kelin yuqorida aytib o`tilgan vaziyatlarga tushishi bilan birga yangi oilada kelin o`zini begona his etishidir.

Yosh oila barpo etilgandan so`ng unda er-xotin munosabatlarining kutulganidek rivojlanishiga xalaqit beradigan ko`plab ijtimoiy, psixologik, etnik, hududiy, jinsiy, omillar borki, yoshlar bularning barchasi haqida xabardor bo`lishligi va ularning salbiy ta`sirlarini yumshatib ijobiy jihatlarini rivojlantirishga tayyor bo`lishlari kerak.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, Yangi O`zbekistonda oila uning huquqiy asoslari, oilaviy tarbiya masalalariga e'tibor yanada kuchayib bormoqda. Oila haqida yoshlarga ko`proq ma'lumot berish, tushintirish ishlarini olib borish, yosh oilalarda yuzaga keladigan turli xil muammolarni hal qilish, uy- joy bilan taminlash, ma'naviy yuksak, chuqur bilimli, zamonaviy fikrlaydigan o`g'il qizlarni tarbiyalash kabilar yosh oilalar zimmasiga yukalatilgan asosiy vazifadir. Shunday ekan, har bir shaxs oila mas'uliyatini his qilib, uning mustahkamlanishiga o`z hissasini qo'shishi shart.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Oila kodeksi- Toshkent. 2021.
2. G`B Shoumarov va boshqalar. Oila psixologiyasi. Toshkent. 2007.
3. Boymirzayeva Rahimaxon. Davlat va huquq asoslaridan atamalar to`plami. Namangan. 2012
4. www. Ziyonet. uz
5. www lex.uz
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kodeks>
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila>
8. Nafiddinova, K. R. (2021). THE EXPLICATION OF THE FAMILY AND FAMILY CEREMONIES IN THE HISTORICAL LITERATURE. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 174-180.
9. Nafiddinova, X. (2021). Ихчам тўйлар—давр талаби. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).
10. Nafiddinova, X. (2023). ОИЛАДА ФАРЗАНД ТАРБИЯСИДА БЕШИК ТЎЙИННИНГ ЎРНИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 29(29).
11. Nafiddinova, X. (2021). Aqiqa marosimi va uning jamiyat hayotidagi o'rni. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).
12. Nafiddinova, X. (2021). Xorijlik olimlar asarlarida oila, oilaviy marosimlar va ular bilan bog'liq masalalarning yoritilishi. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).
13. Nafiddinova, X. R. (2020). The traditions related with the funeral ceremonies. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1261-1265.
14. Нафиддина, X. Р. (2020). БУХОРО ТЎЙ-ҲАШАМЛАРИ: ЎТМИШ ВА БУГУН. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-1 № 3).
15. Ravshanovna, N. K. (2021). The Ceremony of "NASIQA" and its Essence in the Life of the People of Central Asia. *Int. J. Sci. Res. in Multidisciplinary Studies Vol*, 7(2).
16. Ravshanovnad, N. K. (2022). THE ROLE OF RITUALS IN THE UPBRINGING OF CHILDREN IN THE FAMILY. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 3(6), 54-60.
17. Ravshanovna, N. K. (2022). Normative Legal Basis of Protection of People with

- Disabilities. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 1(12), 5-11.
18. Ravshanovna, N. K. (2022). CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY.
19. Ravshanovna, N. K. The concept of family in the Bukhara city during the reign of the dynasty of manghits and its phenomen.
20. Ravshanovna, N. K. (2021, May). MARRIAGE CEREMONIES IN BUKHARA. In " *ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 43-45).
21. Ravshanovna, N. K. (2022). Thoughts of Jadids on Family and Family Rituals. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(1), 197-201.
22. Нафиддинова, Х. Р., & Каландарова, Ф. А. (2020). Күшбеги Бухары-важный источник в изучении истории периода правления мангытов. *Вестник науки и образования*, (7-2 (85)), 26-29.
23. Sobirovich, T. B. (2023). Manifestations of Moral Threats in the Ideosphere of Uzbekistan and Their Prevention Strategy. *Asian Journal of Basic Science & Research*, 5(1), 103-108.
24. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. *Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST)*, 7(1), 149-157.
25. Sobirovich T. B. National Revival and Development Idiosphere of Uzbekistan. – 2023.